

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDAGI ANTROPONIMLAR TAHLILI

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Onomastika tilshunoslikda ahamiyati katta bo'limlardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripov she'rlarida bobolarimizning yurt kelajagi, xalq va ilm-fan uchun qilgan harakatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponimika, ism, familiya, laqab, taxallus, Abdulla Oripov.

About anthroponyms in Abdulla Oripov's poems

Abstract: Onomastics is one of the most important departments in linguistics. Abdulla Oripov's poems reflect the actions of our grandfathers for the future of the country, people and science.

Key words: Onomastics, anthroponymics, name, surname, nickname, alias, Abdulla Oripov.

Onomastika mustaqillik yillarida juda rivojlandi, onomastikaga oid ilmiy ishlar soni ko'paydi. Ma'lumki, Mustaqillikgacha yurtimiz hududidagi deyarli barcha hududlar ruscha nomlar bilan nomlangan edi. Davlatimiz mustaqillikka erishgach har bir hudud kelib chiqishi, xalq tilidagi nomi va dunyoni o'zining kashfiyotlari bilan lol qoldirgan bobolarimiz nomi bilan nomlandi. Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Farg'oniy, Ibn Sino kabi bobolarimizning nomlari viloyat, shahar, tuman, ko'cha, istirohat bog'lari va turli xil muassasa va tashkilotlarga qo'yildi. Shuningdek yurtimiz mustaqilligi va xalq ozodligi uchun kurashgan jadid adabiyoti vakillarining nomlari ham tarixning o'chmas sahifalariga muxrlandi. Ularning hayoti haqida hujjatli va badiiy filmlar ishlandi. Bunday tashabbuslar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan davom ettirilmoqda.

O'zbek xalqining ardoqli va suyuqli shoiri Abdulla Oripov ham bobolarimizni o'z she'rlarida kuylaganlar.

Eslar edim **Buxoriy**, **Yassaviy** ham,

Ha, ha ayri tushmagandi xotirotimdan,

Faqat ular chalinardi ko'zimga mubham,

Lekin sira ketmas edi xayolotimdan.

Imom Buxoriy Islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi o'rinda turuvchi Hadislarni to'plagan insondir. Imom Buxoriy Samarqand yaqinida Hartang qishlog'ida tug'ilgan. Otasi ham yetuk muhaddis bo'lgan, shuningdek savdo-sotiq bilan ham shug'illangan. Onasi ham dindor ayollardan bo'lgan. Imom Buxoriy 5-6 yoshlaridan Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning

hadislarini yod ola boshlagan. Buxoriy 16 yoshiga qadar ilm olish va hadis yozib olish bilan shugʻillanadi. Keyin onasi va akasi bilan Haj ibodatini oʻtash uchun Makkaga keladi. Onasi va akasi ibodatni ado qilib yana Buxoroga qaytadi. Imom Buxoriy esa Makka va Madina shaharlariga kelib hadis toʻplay boshlaydi. Imom Buxoriy koʻplab shaharlar safar qiladi va shu shaharning imli va mashhur ulamolaridan ilm olib, hadis toʻplaydi. Safarlar va izlanishlar natijasida oʻzining eng mashhur asari boʻlmish „Al-jome' as-Sahih" asarini yozadi. Bu asardagi barcha hadislar nosahih ya'ni ishonchsiz hadislar orasidan saralab olingan sahih hadislardir. Shuningdek Imom Buxoriyning „Tafsir al Qur'on" asari ham mashhurdir. Bu asar madrasalarda darslik sifatida oʻqitiladi. Yurtimizda Imom Buxoriy merosini oʻrganish va targʻib qilish maqsadida birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Imom Buxoriy xalqaro jamgʻarmasi tuzilgan.

Ahmad Yassaviy mashhur faylasuf va shoir boʻlib Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tugʻilgan. Ahmad Yassaviy oʻz ijodini chigʻatoy tilida olib borgan. Yassaviy yetti yoshida otasi vafot etadi, onasi esa bundan oldin vafot etgan boʻlib keyin uning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz shugʻillangan. Opasi oʻz tarbiyasiga olgach Yassiga koʻchib boradi va u yerda ustozi Arslon bobo bilan uchrashadi va unga shogird boʻlib ilm ola boshlaydi. Yassaviy Buxoroga ilm olish uchun keladi va bu yerda arab va fors tillarini oʻrganadi. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviy haqida shunday deydi: „Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob gʻoyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostinda nihoyatsiz ermish". Ahmad Yassaviy sheʼrlarida xalqni Islom diniga jalb qilish hamda tasavvufiy ilmlarni xalq qalbiga singdirish gʻoyalari aks ettirilgan edi. Abdurauf Fitrat Yassaviy haqida: „Yassaviyning adabiyotda tutgan yoʻli sodda xalq shoirlarimizning tutgʻon yoʻlidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan sheʼrlar bilan barobar", - degan. Ahmad Yassaviyning izdoshlari va muridlari tomonidan tartib qilingan „Devoni hikmat" asari mashhurdir.

Ham Temurbek, ham Ulugʻbek, Alisher, Bobur,

Sizlar tuzgan ul saltanat -Saltanat boʻldi.

Amir Temur kuchli sarkarda boʻlgan. Shuningdek Amir Temur davrida ilm-fan, meʼmorchilik, sanʼat va adabiyot gullab-yashnagan. Otasi Amir Taragʻay barlos qabilasi beklaridan boʻlgan. Amir Temur ona tili boʻlmish eski turkiy tildan boshqa fors tilini mukammal oʻrgangan. Amir Temur davlati hududi Hindiston va Xitoydan Qora dengizgacha, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qoʻltigʻigacha boʻlgan. Amir Temur shaharsozlikka katta eʼtibor bergan, buning isboti sifatida uning „Qay bir joydan bir gʻisht olsam, oʻn gʻisht qoʻydirdim, bir daraxt kestirsam, oʻrniga oʻnta koʻchat ektirdim", soʻzlarini misol qilishimiz mumkin.

Mirzo Ulugʻbek Temuriylar davlati hukmdori, matematik olim va astronom hisoblanadi. Mirzo Ulugʻbek Samarqandda Ulugʻbek rasadxonasini qurdirgan. U yerda astronomik kuzatishlar olim borgan. Ulugʻbek Samarqand shahrida ilm-fanning taraqqiy topishiga katta hissa qoʻshgan. Mirzo Ulugʻbekni dunyo astronom sifatida tanidi. U tomonidan yaratilgan „Ziji jadidi Koʻragoniy" nomli astronomik jadval uning eng yaxshi ilmiy ishi hisoblanadi. U „Risolayi Ulugʻbek" va „Tarixi arba' ulus" nomli asarlar muallifidir.

Alisher Navoiy oʻzining asarlari bilan butun dunyoga mashhur. U nafaqat shoir balki, davlat arbobi hamdir. Alisher Navoiy ilm olish uchun Samarqandga keladi. Samarqand haqida shunday degan „Firdavsmonand shahardir", bu Jannatmisol degan maʼnoni anglatadi. U „Xamsa", „Mahbub ul-qulub", „Munshaot", „Majolis un-nafois" nomli asarlar muallifidir.

Zahiriddin Muhammad Bobor - o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakili, geograf, davlat arbobi, sarkarda va podshoh. U Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solgan. Va u yerda Boburiylar hukmronligi uch yuz yildan oshgan. Bobur o'zi va borgan hududlari haqida „Boburnoma“ asarini yozgan. Bu asarda har bir hududning geografik joylashishi, tabiati, iqlimi, hayvonot va nabotot olami haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Abdulla Oripovning har bir she'rida keltirilgan bobolarimizning nomlari ularning hayotini va ijodini o'rganishimiz uchun da'vatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Yo'ldoshev O'zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyorova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O'zbek tili toponimlarining o'quv lug'ati Toshkent “Yangi avlod” 2007